

Nabijon Ermat



99 OPISHMOQ VA EZ AYTISHLAR



Nabijon Ermat

99
TOPISHMOQ
VA
TEZ AYTISHLAR

Uchinchi kitob

Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,
Toshkent – 2013

UO‘K 512-133-1

KBK 84(50‘)7

E 80

Ermat, Nabijon

99 topishmoq va tez aytishlar: N. Ermat. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 84 b.

Topishmoq va tez aytishlar bolalar aqlini peshlaydi, lekin ular badiiy shakl va mazmunda farzandlar e`tiboriga havola etilganda, yosh avlodlarni ma`naviy jihatdan tarbiyalaydi.

Ham pedagog-muallim, ham shoir Nabijon Ermat qo‘lingizdagi to‘plamni shu maqsadda alohida mehr bilan, «bir kam» – 99 qilib tartibladi. Qolgan bitta topishmoq va tez aytishni o‘quvchilar o‘zlari to‘qib olishsa, o‘ziga xos imtixon-sinovni boshdan kechirishadi.

To‘plam sizni befarq qoldirmaydi.

UO‘K 512-133-1

KBK 84(50‘)7

ISBN 978-9943-06-484-3

© Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2013 y.

BOLALARDEK JAJJI VA QIZIQARLI

Rivoyat qilishlaricha, paug‘ambarimiz Muhammad alayhissalom farzandlari va nabiralari benihoya yaxshi ko‘rib, ardoqlab, «rayhonlarim» deb lutf etgan ekanlar.

Xo‘sh, boshqalarning bolalari-chi? Albatta, bu haqida» har bolaga qirq xonadon ahli mas‘ul»ga o‘xshagan gaplar xalqimiz orasida ko‘p. Lekin bolalar uchun kerakli she‘rlar, topishmoq va tez aytishlar yozib, kitob qilgan shoirlar haqida qanday rivoyatlar bor? Unday kitoblarning mazmun va mohiyati, farzand tarbiyasidagi ahamiyati borasida, ularning bolalarimizning ma‘nan kamolga yetishi uchun nechog‘lik samarali xizmat qilishi xususida-chi?

«99 topishmoq va tez aytishlar» muallifi – bir umr o‘qituvchilik qilib, bolalar uchun bir necha to‘plamlar chop ettirib, yuraklar to‘ridan joy olgan, asli Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida tug‘ilib o‘sgan Nabijon Ermatov balki bu haqda o‘ylamas, lekin yuragining bir chetida asarlarining savobli ishga xizmat qilishini teran his etadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ularni bolalari va nabiralari kabi yaxshi ko‘radi.

Aziz kitobxon, haqiqatan ham, qo‘lingizdagi kitobdan o‘rin olgan asarlar jajji va o‘ziga xos, shu bilan birga, qiziqarli hamdir. Demak, farzandlarimizga yoqadi, o‘yga toldiradi, tabiat haqida, yaxshilik va yomonlik borasida, bir so‘z bilan aytganda, hayot haqida fikrlashga chorlaydi.

Muharrir

DEBOCHA

Nabiram ko‘p, birining
Ismi Abdul-Azizdir,
Hammasidan boshqacha,
Shirindir ham azizdir.
Hali tili chiqmagan,
Jilmayadi, kuladi,
Sarak-sarak bosh chayqab,
Gapni-gapga ulaydi.
Topishmoq aytib qolsam,
Qiqirlab chapak chalar.
Olti zukko nabiram,
«Yengilar – shahar berar».
Muslimaxon zavqlanib,
Tez aytishni aytadi!
Bir nafasda Muhammad
Takrorlashga qaytadi.
Abdumalik o‘ychandir,
Lablarini buradi,
Shartta javob hozirlab,
Mag‘rurlanib yuradi.
Abdullom, Arofatim –
Ikkov o‘smir yoshida.
Ibrohim til o‘rganar,
Ming bir xayol boshida.
Bu gal mo‘jaz kitobim,
Nabiralarim uchun!
Topishmoq, tez aytishlar
Yo‘qotmaydi o‘z kuchin.
Uyimizdan topilar
Ham muxlis, ham o‘quvchim.
Olqishlaru chapaklar
Orttirar ilhom kuchim.

ДЕБОЧА

Набирам кўп, бирининг
Исми Абдул-Азиздир,
Ҳаммасидан бошқача,
Шириндир ҳам азиздир.
Ҳали тили чиқмаган,
Жилмаяди, кулади,
Сарак-сарак бош чайқаб,
Гапни-гапга улайди.
Топишмоқ айтиб қолсам,
Қиқирлаб чапак чалар.
Олти зукко набирам,
«Енгилар – шаҳар берар».
Муслимахон завқланиб,
Тез айтишни айтади!
Бир нафасда Муҳаммад
Такрорлашга қайтади.
Абдумалик ўйчандир,
Лабларини буради,
Шартга жавоб ҳозирлаб,
Мағрурланиб юради.
Абдулло, Арофатим –
Икков ўсмир ёшида.
Иброҳим тил ўрганар,
Минг бир хаёл бошида.
Бу гал мўъжаз китобим,
Набираларим учун!
Топишмоқ, тез айтишлар
Йўқотмайди ўз кучин.
Уйимиздан топилар
Ҳам мухлис, ҳам ўқувчим.
Олқишлару чапаклар
Орттирар илҳом кучим.

TOPISHMOQLAR

I. TABIAT HODISALARI

1. Sharq qizarib bo‘zarar,
Tunning zulmi bezarar.




2. Olam gulga ko‘milar,
Sovuq ko‘zi yumilar.
Qay faslda qaynar ish?
«Bu nima – kuzmi yo qish?»



3. Tomchilardan ko‘payib,
Ariqlarni xo‘llaydi.
Manziliga etganda
Giyohga jon yo‘llaydi.



4. Sharqiroq ovozi bor,
Jilg‘alarda nozi bor.



ТОПИШМОҚЛАР

I. ТАБИАТ ҲОДИСАЛАРИ

1. Шарқ қизариб бўзарар,
Туннинг зулми безарар.




2. Олам гулга кўмилар,
Совуқ кўзи юмилар.
Қай фаслда қайнар иш?
«Бу нима – қузми ё қиш?»»



3. Томчилардан кўпайиб,
Ариқларни хўллайди.
Манзилига етганда
Гиёҳга жон йўллайди.




4. Шарқироқ овози бор,
Жилғаларда нози бор.



5. Toza, shaffof,
yosh ko‘zida
tog‘ etagi –
Tosh ko‘zidan,
Qaynab chiqar,
O‘ynab chiqar.




6. Tongda, asrda, shomda
Menga ergashib yurar.
Choshgohda-chi, oyog‘im
Ostiga o‘zin urar.



7. Janub, shimolga yo‘lim
Tushsa, shundoq yonimda.
Yuradi hamroh bo‘lib,
Aziz, qadrdonim-da.




8. Sharqqa qarab odimlasam,
Ortimdan ergashadi.
G‘arbga agar bursam yuz,
Men bilan tillashadi.



5. Тоза, шаффоф,
ёш кўзида
тоғ этаги –
Тош кўзидан,
Қайнаб чиқар,
Ўйнаб чиқар.




6. Тонгда, асрда, шомда
Менга эргашиб юрар.
Чошгоҳда-чи, оёғим
Остига ўзин урар.



7. Жануб, шимолга йўлим
Тушса, шундоқ ёнимда.
Юради ҳамроҳ бўлиб,
Азиз, кадрдоним-да.



8. Шарққа қараб одимласам,
Ортимдан эргашади.
Ғарбга агар бурсам юз,
Мен билан тиллашади.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/3637> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3637> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/3637>